XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-avgust VI-98-63-10-213-K/24 Nurafshon shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud nomlari davlat ro‘yxatidan o‘tmagan geografik obyekt (5 ta qabriston va 2 ta ziyoratgoh)larga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga asosan Nurafshon shahar hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 01-08/125-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 11-noyabrdagi 1/12-4-6916-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligidan olingan (2022-yil 9-noyabrdagi 08-09894-sonli javob xati) ekspert xulosasi (2022-yil 8-noyabrdagi 00968-son)ga ko‘ra, xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.Nurafshon shahar hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 01-08/125-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 11-noyabrdagi 1/12-4-6916-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligidan olingan (2022-yil 9-noyabrdagi 08-09894-sonli javob xati) ekspert xulosasi (2022-yil 8-noyabrdagi 00968-son) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi ekspert xulosasiga ko‘ra shahardagi mavjud 5 ta qabriston 2 ta ziyoratgolarning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi,shahar bosh imom xatibi 1 oy muddatda shahardagi mavjud qabristonlarni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlaryuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (M.Shoismanova)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror “Mash’al” ijtimoiy-siyosiy gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatishmasalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Usmonov) hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (M.Shoismanova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-98-63-10-213-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Nurafshon shahridagi mavjud nomlari davlat ro‘yxatidan o‘tmagan geografik obyekt (5 ta qabriston va 2 ta ziyoratgoh)larga nom berish to‘g‘risida

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektga berilgan nomi yoki qayta nomlanishi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Ziyoratgoh	To‘y-tepa mahallasi	Nomsiz	“Adham sahoba”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Ziyoratgoh	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	“Mushukota”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	Degantepa mahallasi	Nomsiz	“Degantepa”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	To‘y-tepa mahallasi	Nomsiz	“Adham sahoba”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Qabriston	Evalak mahallasi	Nomsiz	“Evalak”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	Qabriston	Oybek mahallasi	Nomsiz	“Rusmozor”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Qabriston	Oybek mahallasi	Nomsiz	“Koreyslar”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.